



2024-yil. 3-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



Bahor keldi seni so'roqlab...

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yoshi to'kdi-yu, chekindi nari.*

TAHLIL

O'tkir Abdunazarov. Esse janri va Nosir Fozilov ijodi.....	56
Sardor Baxriddinov. G'afur G'ulom asarlaridan kelib chiqadigan huquqbuzarlik holatlarining bayoni.....	60
Alimardon Ergashev. Said Ahmad "Taqqdir, taqqdir, muncha beshafqatsan!" hikoyasini blum taksonomiyasi orqali o'rganish.....	61
Nargiza Mirzayeva. Mediada bolalar uchun kontent yaratish tamoyillari.....	64
Shohinur Rahmataliyeva. "Alpomish" dostonida Barchin obrazining o'rganilishi.....	66
Amira Ibatova. Non bilan bog'liq leksemalar tahlili.....	68
Nigora Abdusalomova. "Zevaxon" dostonining o'rganilishi.....	70
Normat Yuldashev. Cho'lpon she'riyatida poetik tilning xalqchillashuvi.....	72
Gulhayo Isabayeva. "Quyoshim – enam" qissasida personajlar sisitemasi.....	75
Nazokatxon Tojibayeva. Jamiyatda xotin-qizlarning rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi qaror va farmonlar hamda ularning ijtimoiy ahamiyatligi.....	76

PEDAGOGIKA

Dilbar Ibragimova, Malika Muxamadiyeva. Xorijiy tillarni o'qitishning ta'lim tizimida tutgan o'rni va o'qitishning nazariy mezonlari.....	79
Maysara Axmedova. Hadislarda ekologik tarbiya masalalari.....	82
Mohigul Fozilova. O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish metodikasi.....	86
Adash Rustamova. Pedagogical approaches and diagnostics of teching in higher education.....	88

METODIK TAVSIYA

Nilufar Abidova. Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyatning pedagogik imkoniyatlari.....	92
Nilufar Turg'unova. Ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili.....	94
Surayyo Inomjonova. Fantastik asarlar orqali o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari.....	98
Zamira Yuldasheva. Innovatsion texnologiyalar asosida rus tili darslarda mutaxassislik bo'yicha tarjima kompetensiyasini shakllantirish.....	101

TILSHUNOSLIK

Umidaxon Ahmadova. Perifraza va frazeologik birliklar.....	104
Ezoza Hazratqulova, Shaxlo Botirova. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi psixolingvistikaning ahamiyati va nutq faoliyati turlari.....	107
Gulshoda Ruziyeva. Sotsiopragmatik tahlilda nutqiy aktlarning o'rni.....	111
Nargiza Aliyeva. Evfemizm va ulardan foydalanish asoslari.....	112
Shohsida Eshbo'tayeva. Til tarkibiga musiqa terminlarining ta'siri: dunyo tilshunosligi misolida.....	114
Nigina Axmedova. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi.....	117
Sarvinoz Mardonova, To'liq Asadov. Ayrim muallif nutqi neologizmlarining leksikografik talqini xususida.....	119
Lobar G'aniyeva. Davlat boshqaruvi terminlarini tematik tasniflash nazariyasi.....	122
Manzura Ernazarova. Masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish.....	124
Maxfuza Axmadjonova. O'zbek tilshunosligida matn muammosining o'rganilishi.....	126
Sadoqat Samandarova. Evfemik frazeologizmlar tushunchasi va uning o'rganilish tarixi.....	128
Dilzodaxon Saydaliyeva. O'zbek struktur tilshunosligining rivojida professor Sh.Iskandarovning o'rni.....	130
Dilara Dospanova. Til va madaniyatning o'zaro ta'sirida antroponimlar.....	133

KICHIK TADQIQOT

Intizor Abdujabborova. Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy "Sad Irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy" va "Zarbulmasali Sidqiy" asarlarining o'rganilishi.....	135
Shohista Abduqodirova, Guli Toirova. Ramziy-majoziy ma'no asosida axborot yetkazish.....	138
Zilola Mirqodirova. The role of pronunciation for english students.....	142

Umidaxon AHMADOVA,
 Buxoro davlat universiteti,
 O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
 kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

PERIFRAZA VA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: maqolada perifraza va frazeologik birliklarning o'xshash va farqli xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Ular bir-birini takrorlovchi, o'xshash birlik ekanligi xususidagi olimlarning qarashlari keltirilgan. Ayni o'rinda ular farqli jihatlarga ham ega ekanligi misollar asosida tahlil qilinib, ibora va perifraza aynan bir turdagi hodisa emasligi, biroq ular hamisha o'zaro ta'sirda bo'lishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: perifraza, frazeologik birliklar, til, O.S.Axmanova, S.N.Muratov, M.A.Sirivlya, lison, nutq.

Аннотация: в статье рассматриваются сходные и различные особенности перифразов и фразеологизмов. Приводятся мнения ученых, что это схожие единицы, повторяющие друг друга. При этом на примерах было проанализировано, что они имеют разные аспекты, и определено, что словосочетание и перифраз не являются совершенно одним типом явлений, но всегда взаимодействуют.

Ключевые слова: перифраз, фразеологизмы, язык, О. С. Ахманова, С. Н. Муратов, М. А. Сиривля, язык, речь.

Annotation: the article discusses the similar and different features of periphrasis and phraseological units. The opinions of scientists are given that they are similar units repeating each other. At the same time, it was analyzed on the basis of examples that they have different aspects, and it was determined that phrase and periphrasis are not exactly one type of phenomenon, but they always interact.

Key words: periphrasis, phraseological units, language, O.S. Akhmanova, S.N. Muratov, M.A. Sirivlya, language, speech.

Perifraza haqida internet qomusida quyidagilarni o'qiydiz: perifraza, perifraz (yun. periphrasis – tasviriy ibora; kinoya, istiora) – borliqdagi narsa va voqealarning nomini to'g'ridan-to'g'ri atamasdan ularni bilvosita, ya'ni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar bilan ifodalash; majoziy ifodalardan biri (masalan, «sher» o'rnida «hayvonlar shohi»; «paxta» o'rnida «oq oltin», Alisher Navoiy o'rnida «o'zbek adabiy tilining asoschisi» iboralarining qo'llanishi). Perifrazada tasvirlanayotgan tushunchaning ayni matn va vaziyat uchun eng muhim sifati, belgisi, xususiyati birinchi o'ringa qo'yiladi. Perifrazaning asosiy vazifasi matnning ifodaviyligini, bayonning ta'sirchanligini oshirishdir.

Perifraza, asosan, badiiy adabiyot tilida, publitsistik va og'zaki nutqda uchraydi, ilmiy nutqda esa tasviriylikdan xoli bo'ladi va termin sifatida qo'llanadi. Funktsional jihatdan perifrazaning ikki turi farqlanadi: jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, hamma tushunadigan perifraza (frazologizmlar, hikmatli iboralar) va vaziyatga bog'liq bo'lgan, mazmuni, ma'nosi muayyan matngagina aloqador bo'lgan individual perifraza (bularning ba'zilari izchil qo'llanish natijasida 1-turdagi perifrazalar qatoriga o'tadi). Shu bilan birga, badiiy, obrazli perifrazalar (oq oltin – paxta, zangori olov – gaz, po'lat qush – samolyot kabi) va mantiqiy perifrazalar (masalan, evfemizmlar, tabular) o'zaro farqlanadi. Aksariyat perifrazalar o'tli birikmalar bo'lib, metafora, metonimiya, sinekdoxa singari ko'chimlar asosida yuzaga keladi [9].

Demak, fanda perifraza atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llanilar ekan: keng ma'noda nutqda ishlatiladigan barcha ko'chma ma'noli birliklar

(frazologizmlar, hikmatli iboralar, evfemizmlar, tabular va boshqalar) perifrazalar deb yuritilsa, tor ma'noda faqat tasviriy ifodalargina nazarda tutiladi.

Nutqiy ko'chimlarning barchasiga perifrazalar deb qarash yoki ularni iboraning bir ko'rinishi sifatida tavsiflash o'zbek tilshunosligiga jahon tilshunosligidan o'tganligini kuzatamiz. Chunonchi, ko'pgina lingvistik manbalarda «perifraza» atamasi «so'z yoki so'zlar guruhini almashtirish, takrorlanmaslik, roviylikka yanada ekspressivlikni berish uchun ishlatiladigan tavsiflovchi ibora» sifatida izohlanadi [2, 109]. (Zamonaviy tilshunoslikda perifrazani nominatsiyani tavsiflash usuli; mavjudlikni ifodalovchi allegorik ibora ko'rinishi deb talqin etish ham uchraydi).

O.S.Axmanova perifraza atamasini 1) ta'rifiy ibora yoki 2) oddiy so'zni tavsifli ifoda bilan almashtirishdan iborat bo'lgan trop degan nomlar bilan almashtirib qo'llashni to'g'ri deb hisoblagan [1, 312].

Qadim zamonlardan kishilar narsa-hodisalar haqida shunchaki ma'lumot berib qolmasdan, ularning muhim xususiyatlarini tasvirlab, qiyoslab, alohida o'ziga xos belgilarini ajratib ta'riflash kabi usullardan foydalanib kelishganligi, shunday ifoda usullari natijasida tilning tasviriy vositalari shakllangan bo'lib, ifodalanuvchi fikrning badiiy obrazlilik, ta'sirchanligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilganligi bizga ma'lum. Bunday vositalarga perifraza, ibora, idioma kabilarni kiritishganki, bu birliklarni ayrim olimlar sintaksisning o'rganish obyekti sifatida ko'rishsa, boshqa tilshunoslar leksikologiya doirasida tadqiq qilishgan. Ko'rinib turibdiki, perifraza bir qancha xususiyatlari bilan iboraga yaqin turishini isbotlashga

harakat qilishgan.

Zero, perifraza tarkibida sintaktik aloqaga kirishgan (masalan, **ko'kning fonusi, yerning yopinchi, osmonning ko'z yoshlari** kabi) birliklar mavjudligi uchun undagi nominatsiya faqat bir so'zga teng bo'lishiga qaramay leksik birlik bo'lolmaydi. Ammo undagi nominatsiyaning birgina so'zga teng bo'lishi esa perifrazani sintaksis doirasidan «chetlashtiradi». Xo'sh, perifrazalarni frazeologik birliklarning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish o'rinlimi?

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va to'la gavdalanirishda frazeologik iboralarning o'ri, ahamiyati beqiyos ekanligi ma'lum. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida yuzaga kelgan xalqona xulosalarni o'ziga xos obrazli ifodalash vositasidir. Yozuvchilar, odatda, badiiy tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar, balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiriladi va qayta ishlaydilar. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xil ekanligi fanda ma'lum. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni sanash mumkin» [7,70]. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan [3]. Badiiy matnda eng ko'p uchraydiganlarini quyida sanab o'tamiz.

1. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almashtirish.

Umumiste'molda bo'lgan ibora tarkibidagi so'z boshqasiga almashtiriladiki, bunda kitobxonning e'tiborini o'ziga torta olishi maqsad qilib qo'yiladi. Odatda, til sezgirligi nihoyatda baland bo'lgan ijodkorlarga buni eplay olishadi. Masalan, Said Ahmad tildagi **mulla mingan eshakdek** iborasini, Cho'lpon **og'ziga talqon solmoq, o'z ildiziga o'zi bolta urmoq** iboralarni yangicha shaklda mahorat bilan qo'llaganliklarini kuzatish mumkin. **Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo'lib qolasiz** (S.Ahmad). **Mingboshining falon-falonlari bizni ko'ziga iladimi?, deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og'zingga paxta tiqingmi hammang? Dunyoda o'z oyog'iga o'zi bolta chopadigan ahmoq ham bo'ladimi?** (Cho'lpon).

2. **Ibora tarkibini kengaytirish.** Bunda ibora tarkibiga yangi so'z kiritiladi. Tilimizda jar solmoq iborasi mavjud. Cho'lpon uni qo'shkarnayi bilan jar solmoq tarzida kengaytiradi: **Mingboshilikni tortib olib, el ko'zida tamom sharmanda qiladiganday!**

Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo'shkarnayi bilan jar soladiganday!

3. **Ibora tarkibini qisqartirish.** Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni tushirib qo'llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o'z badiiy-lisoniy maqsadiga ko'ra foydalanadilar. Tilimizda qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi «ixlosi qaytib, ishonmay qo'yib, diqqat-e'tibordan soqit qilmoq» tarzida izohlanadi. Cho'lpon «Kecha va kunduz» romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo'llaydi: Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi. Bu iboraning noyib to'ra nutqida qo'l yuvmoq tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma'no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to'raning «voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to'g'ri keladi» degan fikri mazkur ibora orqali aniqlashtirilgan. Ko'rinadiki, ayni iboraning qisqargan varianti «tashlab chiqmoq», «ajralmoq», «qochib qolmoq» kabi yangi ma'no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdori (fondi)ni aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.

Bir guruh olimlar ibora va perifrazalar yaqinligini quyidagilar asosida dalillashga harakat qiladilar:

a) ibora ham, perifraza ham badiiy bo'yoqdorlikka ega turg'un birliklardir: bag'ri tosh (ibora) – mo'yqalam sohiblari (perifraza);

b) ibora ham, perifraza ham bir so'zning kengaytirilgan obrazli shakli: og'zi qulog'ida (ibora) – otash arava (perifraza);

v) ibora ham, perifraza ham birdan ortiq komponentdan iborat bo'lishi kerak: yerga ursa osmonga sapchiydigan (ibora) – g'azal mulkinging sultoni, (perifraza);

g) uslubiy jihatdan ekspressivlik, fikrni yashirish orqali bayon qilish (nomini atamay turib aytish) va shu orqali tinglovchi/o'quvchi diqqatini jalb etish.

Quyidagi fikrlar ham yuqoridagi tavsiflarga hamohang: «Shuni ham aytish lozimki, perifrazalar sof turg'un so'z birikmalaridan faqat ma'lum darajada majoziy ma'no ifodalariga ko'ra farqlanadi. Bu farq semantik nuqtayi nazardandir. Sintaktik strukturalari jihatidan esa sof turg'un birikma bilan perifraza o'rtasida tafovut ko'zga tashlanmaydi, zotan, ularning har ikkisida ham komponentlari munosabati turg'unlikka asoslangandir» [6, 248].

S.N.Muratovning turg'un so'z birikmasi keng

ma'noda talqin etilgan «Устойчивые словосочетания в тюркских языках» (Москва, 1960) deb nomlanuvchi monografik tadqiqotida aytilgan quyidagi fikri juda o'rinli deb hisoblaymiz: «Har qanday frazeologik ibora turg'un so'z birikmasi sanalishi mumkin, ammo har qanday turg'un birikma ibora bo'la olmasligini unutmashimiz kerak».

M.A.Sirivlya esa tadqiqotlarida frazeologik birlikni til birligi, perifrazalarni nutq birligi sifatida talqin etadi. O'z qarashlarida iboralar tarkibidagi nominativ birliklar o'zgarmas, turg'un ekanligini, perifrazalarda esa bu hodisa nutq ta'sirchanligining o'sishi bilan tarkibiy qismlar o'zgaruvchan ekanligini izohlab o'tadi [5].

A.M.Emirova perifrazalarni frazeologik iboralar jumlasiga kiritadi [8].


Bizningcha, bunday mulohaza izohtalabdir. Chunki perifrazalar komponentlari o'z leksik ma'nolarini tark etmaydi. To'g'ri, bunday birikmalarda ham qandaydir ma'noda majoziylik belgilari kuzatiladi. Ammo bu bilan perifrazalarning frazeologik iboralardan farqi yo'q, deb bo'lmaydi.

Masalan: «kapalagi uchib ketmoq» – iborasini

«qushi uchib ketmoq» yoki «bulbuli uchib ketmoq» ko'rinishida qo'llay olmaymiz. Iboralar tarkibidagi biror leksik birlikni o'zgartira olmaymiz, muloqotda ham ular o'zgarmas, turg'un holatda reallashadi.

Perifrazalarda bu hol muloqotning ta'sirchanlik darajasining oshishiga ko'ra o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan: pandemiya davrida tilimizga chuqur singib borgan COVID – 19 virusining turli perifrastik ko'rinishlari koronavirus, toj virus, tojdor virus, qirol virus shakllari, buyuk alloma Alisher Navoiyga nisbatan turk tilining sultoni, g'azal mulkingning sultoni, so'z mulkingning sultoni, adabiyot sultoni perifrastik birliklarining yuzaga kelganligini kuzatish mumkin. Misollardan ko'rinib turganidek, perifrazalar tarkibidagi leksik birliklar nutqning takomillashuvi jarayonida o'zgarib, sayqallanib boradi.

Fikrimizcha, perifrazalarni frazeologik birlik, deb hisoblash ham yoki ularni iboralarning alohida ko'rinishi sifatida talqin etish ham mohiyatga bir yoqlama yondashish oqibatidir. Chunki ibora til birligi bo'lmish frazemaning nutqiy hosilasi bo'lsa, perifraza (tasviriy ifoda) jamiyat a'zolari nutqida yaratilib (ommalashib),



1.1-rasm. Perifraza va iboraning til sathidagi o'rni tasviri

Hozirgacha bu nutqiy birlikning til sathidagi o'rni haqida turlicha mulohazalar yuritilgan bo'lsa-da, o'rni aniq belgilanmagan. Perifrazalarning matndagi o'ziga xos xususiyatlari, perifrastik birikmaning sintaktik tomonlari, lug'atshunoslik uchun maxsus material bo'la olish jihatlari ham etibordan chetda qolgan. Zero, bizning izlanishlarimiz perifrazalarga semantik jihatdan turli xil pragmatik axborotga ega bo'lgan lingvistik ma'noning turi sifatida yondashuvni taqozo etadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ibora va perifraza aynan bir turdagi hodisa bo'lmasa-da, ular hamisha o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ya'ni ba'zi frazeologik birliklarning yuzaga kelishida perifraza (ishq mulkiga sulton bo'lgudek

iborasining yaratilishiga g'azal mulkining sultoni perifrazasi turtki bo'lgan va hokazo), xuddi shuningdek, ayrim perifrazalarning yaratilishida iboralarning ta'siri (masalan, *adolatni aso qilgan* iborasi *adolat posbonlari* perifrazasining yuzaga kelishi bilan aloqador) sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва. 1969. – 608 с. – С. 312.
2. Головенченко А.Ф. Перифраз // Краткий словарь литературоведческих терминов / ред.-сост. Л.И. Тимофеев, С.В. Тураев. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 109.
3. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд: СамДУ, 1999. – 200 б.
4. Муратов С.Н. «Устойчивые словосочетания в тюркских языках». Москва, 1961. – С. 127.
5. Сиривли М.А. Перифраз как экспрессивное средство языка газеты: семантико-прагматический аспект: автореф.дисс. ...канд. филол.наук. – Москва, 2007. – с. 193.
6. Шодиев С.Э. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари// Хорижий филология. 2017, № 2. – Б. 246-250.
7. Шомақсудов А ва б. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 70-б.
8. Эмирова А.М. Русская фразеология в коммуникативном аспекте. Ташкент: ФАН УзССР, 1988. – 91 с.
9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-p/perifraza-uz/>

til sathiga kirgan birlikdir (Qarang: 1.1-rasm).

Ezoza HAZRATQULOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti,

Shaxlo BOTIROVA,

pedagogika fanlari doktrori (DSc), professor, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ilmiy rahbar.

XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI VA NUTQ FAOLIYATI TURLARI

Annotatsiya: psixolingvistika insonning tilni qanday egallashini, og'zaki va yozma nutqni nafaqat o'z tilida, balki ikkinchi tilda ham rivojlantirish va tushuntiradigan ko'plab nazariyalarni taqdim etadi. Psixolingvistika kafedrasida tilshunoslikning eng yosh bo'limlaridan biri hisoblanib, mamlakatimizda qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *psixolingvistika, psixolingvistik ko'nikma, nutq faoliyatlari, ekspressiv va retseptiv faoliyat, nutq malakasi, nutq mahorati*

Annotation: psycholinguistics provides many theories that explain how a person acquires language, develops and understands spoken and written speech not only in his own language, but also in a second language. The Department of Psycholinguistics is considered one of the youngest departments of linguistics and has been extensively researched by a number of scientists and researchers in our country.

Key words: *psycholinguistics, psycholinguistic skills, speech activities, expressive and receptive activities, speech skills, speech skills*

Аннотация: психолингвистика предлагает множество теорий, объясняющих, как человек овладевает языком, развивается и понимает устную и письменную речь не только на своем, но и на втором языке. Кафедра психолингвистики считается одной из самых молодых кафедр языкознания и широко исследуется рядом ученых и исследователей нашей страны.

Ключевые слова: *психолингвистика, психолингвистические умения, речевая деятельность, экспрессивно-рецептивная деятельность, речевые навыки, речевые навыки.*

Psixolingvistika – alohida fan sohasi bo'lib odamning nutq faoliyatini tadqiq etadi. Metodikaning psixolingvistik aspekti ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchilarining nutq rivojlanishidagi xos xususiyatlarini o'rganadi. Ta'lim mazmunidan kelib chiqib mavzularga mos til materialini metodik tashkil etuvchi sotsiolingvistik aspektdan farqli o'laroq, psixolingvistik aspekt zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tillarni o'qitishning xorijiy usullari birinchi navbatda o'rganishga bixevioristik yondashuv asosida shakllangan. Ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda "ko'nikma" va "ko'nikma" atamallari bir-biridan ajratilmagan: ko'nikmalar atamasi ham aspekt ko'nikmalarini, ham muloqot qobiliyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Psixolingvistikada nutq faoliyatining to'rtta asosiy turi ajratiladi - tinglash (eshitish), gapirish, o'qish va yozish. Og'zaki nutq gapirish va tinglashni, yozish esa o'qish va yozishni o'z ichiga oladi. Nutq faoliyatining ikkilamchi turlari - tarjima. Nutq faoliyatining ikkilamchi turi - bu, bir tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga va maxsus shaxsiy